ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

HINDIY TILIDAGI DIPLOMATIK TERMINLARNING STATISTIK TAHLILI (GAZETA MATNLARIDA QO‘LLANILGAN DIPLOMATIK TERMINLAR MISOLIDA)

Maxfuza Mirzamurodova Furqat qizi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
2-kurs lingvistika mutaxassisligi magistranti
Tel: +998935466668
Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent **Sirojiddin Nurmatov**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola hindiy tilidagi gazeta matnlarida qo‘llanilgan diplomatik terminlarning statistik tahliliga bag‘ishlanadi. Dastlab nashr etib kelinayotgan diplomatiyaga oid maqolalar tanlab olinadi va ularda uchragan diplomatik terminlar ajratiladi. Ajratilgan diplomatik terminlar tematikasiga ko‘ra, bir qancha guruhlarga bo‘lib tahlil qilinadi. Ular orasida eng faol qo‘llanilgan diplomatik terminlar aniqlanib, son jihatdan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma terminlar, tematik guruhlar, qiyosiy-tipologik tahlil, diplomatik yozishmalar, diplomatik hujjatlar*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена статистическому анализу дипломатических терминов, используемых в газетных текстах на хинди. Первоначально отбираются опубликованные статьи по дипломатии и выделяются используемые в них дипломатические термины. Выбранные дипломатические термины анализируются в нескольких группах в соответствии с их тематическим содержанием. Среди них были выявлены и проанализированы наиболее активно используемые дипломатические термины.

Ключевые слова: *тематические группы, сравнительно-типологический анализ, дипломатическая переписка, дипломатические документы*

ABSTRACT

This article is devoted to the statistical analysis of diplomatic terms used in Hindi language newspaper texts. Initially, published articles on diplomacy are selected and the diplomatic terms used in them are separated. The separated diplomatic terms are divided into several groups according to the theme. Among them, the most actively used diplomatic terms are identified and analyzed numerically.

Keywords: *thematic groups, comparative-typological analysis, diplomatic correspondence, diplomatic documents*

Diplomatik terminlarni statistik tahlil qilishda Hindiston ommaviy axborot vositalari, gazetalari va jurnallarida uchragan diplomatik terminlar sintagmatik tahlil qilindi. Tahlil jarayonida Hindistonda chop etiladigan “Jan satta” (जन सत्ता), “Aaj tak ki khabren” (आज तक की ख़बरें) jurnal-gazetalari, hamda Aajtak.in[1] xabar va yangiliklar saytidan diplomatiyaga oid maqolalar tanlab olinib, unda ishtirok etgan diplomatik terminlar qiyosiy-tipologik usulda tahlil qilindi.

Mazkur yo‘nalishdagi tahlilni olib borishdan ko‘zlangan maqsad, hindiy tilidagi diplomatik terminlarning ayni vaqtda gazeta va jurnal matnlaridagi o‘rnini, ikkinchi bobda ajratgan tematik

1 www.aajtak.in

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

guruhlardan qaysi birlari ko‘proq qo‘llanilishini statistik tahlil qilish asosiy maqsad qilib olingan. Shuningdek, ushbu maqsadga erishishda diplomatik terminlar orasida gazeta va jurnallarda faol tarzda ishlatilayotgan terminlarni son jihatdan aniqlagan holda tahlil qilinadi.

Tahlil natijasida hindiy tili matnida uchragan diplomatik terminlar son jihatdan ko‘p miqdorni tashkil qildi. Gazeta va jurnallardan olingan maqolalarda qo‘llanilgan diplomatik terminlar tematik jihatdan guruhlarga ajratib chiqildi. Quyida ajratilgan eng asosiy guruhlar o‘z aksini topgan:

Gazeta matnlarida qo‘llanilgan terminlar tematikasi bo‘yicha eng katta guruhni diplomatik martabalarga oid terminlar tashkel etdi. Ulardan asosiylarini keltirib o‘tamiz:

मान्य व्यक्ति m-r - persona grata

अमान्य व्यक्ति m-r - persona non grata

अवांछित व्यक्ति (S) m-r persona non grata

कार्यदूत m-r ishonchli vakil, muvaqqat ishlar vakili

उपराजदूत (S) m-r – ishonchli vakil

राज-प्रतिनिधि (S) m-r muvaqqat ishonchli vakili

अस्थायी कार्यदूत (S) m-r vaqtinchalik elchi

प्रतिनिधि S m-r - vakil

कूटनीतिज्ञ (S) m-r – diplomat

राजनीतिज्ञ (S) m-r – diplomat

Qo‘llaniladigan eng faol tematik guruhlardan yana biri diplomatik hujjat nomlaridir:

टिप्पण S m-r – nota

मौखिक टिप्पण m-r og‘zaki nota

संलेख (S) m-r - protokol, dalolatnoma

विदेशाधिकरण m-r – protokol

प्रोटोकल (E) m-r – protokol

अधिनियम m-r – akt

अंतिम अधिनियम m-r- yakuniy akt

स्मरण-पत्र m-r – memorandum

मेमोरेंडम (E) m-r – memorandum

परिचय-पत्र (S) m-r - ishonch yorlig‘i

प्रतिनिधि-पत्र (S) m-r ishonch yorlig‘i

अंतर्राष्ट्रीय संगठन की क़ानून- xalqaro tashkilot nizomi

Keyingi faol tematik guruh bu diplomatik jarayonlarga oid terminlar guruhi hisoblanadi. Bu tematik guruhga mansub quyidagi terminlarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

राजनयिक पत्राचार m-r – diplomatik yozishmalar

कूटनैतिक संबंध (S) m-r - diplomatik munosabatlar

कूटनैतिक विघटन (S) m-r - Diplomatik buzilish, bo‘shliq

प्रमाण-पत्र पेश करना - ishonch yorliqlarini taqdim etish

समनुमोदन m-r – agreman, rozilik

Diplomatik bitim va kelishuvlarga oid terminlar ham gazeta matnlarida takroran qo‘llanilishi aniqlandi. Ular jumlasiga quyidagi terminlar kiradi:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

शांति समझौता - tinchlik shartnomasi
मुक्त व्यापार समझौता - erkin savdo shartnomasi
संधि वार्ता - shartnoma muzokaralari
कूटनीतिक वार्ता - diplomatik suhbatlar
समझौता ज्ञापन – anglashuv memorandumi
द्विपक्षीय संधि - Ikki tomonlama shartnoma
बहुपक्षीय समझौता - Ko'p tomonlama shartnoma

Diplomatiyaga oid terminlar gazeta matnlari asosida tahlil qilinganida, bitta terminning bir nechta maqolalarda takroran qo‘llanilgani kuzatildi. Shunga ko‘ra, ayrim terminlar faol ter**minlar** hisoblansa, ayrim terminlar nofaol ekanligi aniqlandi. Xatto ba’zi diplomatik terminlar gazeta matnlarida mutlaqo uchramadi. Quyidagi jadvalda ularning miqdoran statistikasi hisoblab chiqildi:

№	Diplomatik termin	Gazeta matnlarida qo‘llangan soni:
1.	विदेशाधिकरण S m-r	4
2.	टिप्पण S m-r	2
3.	कूटनीतिज्ञ S m-r	4
4.	कूटनैतिक संबंध (S) m-r	8
5.	राजनयिक पत्राचार m-r	2
6.	स्मरण-पत्र m-r	3
7.	उपराजदूत (S) m-r	7
8.	प्रतिनिधि S m-r	9
9.	कार्यदूत m-r	6
10.	द्विपक्षीय संधि	6
11	बहुपक्षीय समझौता	5

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hindiy tilidagi diplomatiyaga oid gazeta matnlarida ingliz o‘zlashmalariga qaraganda, sanskritcha so‘zlar keng miqyosda qo‘llaniladi. Ingliz tilidan o‘zlashgan नोट (Note) – diplomatik nota so‘zidan ko‘ra, sanskritcha टिप्पण so‘zi, ingliz tilidan kirib kelgan मेमोरेंडम (memorandum)- memorandum so‘zi emas, balki sanskrit so‘zi स्मरण-पत्र 3 marotaba qo‘llanilgani aniqlandi. Bundan tashqari प्रोटोकल (E. protocol) so‘zining qo‘llanilishi bir marotaba uchragan bo‘lsa, sanskritcha विदेशाधिकरण so‘zi 4 martta qo‘llanilgani aniqlandi.

Xulosa

Diplomatik terminlarning tematik guruhlari ichida eng ko‘p miqdorda diplomatik martabalarga oid terminlar ishlatilganligi aniqlandi. Ularning umumiy soni 31 tani tashkil etdi. Qo‘llanilgan diplomatik terminlarning ishlatilganlik soni bo‘yicha ikkinchi o‘rinni diplomatik jarayonlarga oid terminlar egalladi. Bunday terminlar tahlilga ko‘ra 22 o‘rinda ishlatilgani aniqlandi. Ishlatilish miqdoriga ko‘ra, keyingi o‘rinni diplomatik hujjatlarga oid so‘zlar eglladi. Ularning soni 18 ta bo‘lib, barchasi sanskrit so‘zlarini tashkil etdi. Gazeta matnlarida uchragan eng kam terminlar diplomatik yozishmalarga oid terminlar ekanligi aniqlandi. Kuzatuvlar natijasida, hindlar o‘z og‘zaki nutq jarayonida ingliz o‘zlashmalariga ko‘proq murojaat qilishlarining guvohi bo‘lganmiz, biroq aynan gazeta matnlarida

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-5

hindlar o‘zlashma terminlarga emas, aksincha sanskritcha va tadbhava so‘zlarini qo‘llashga intilishlari aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бескровный Б.М. Хинди-русский словарь под ред. В.М. Бескровного. -М., 1972.
2. Дымшиц З.М. и др. Грамматика языка хинди. -Москва 1986.
3. चतुर्भुज सहाय, अरुण चतुर्वेदी, व्यावहारिक हिंदी व्याकरण और वार्तालाप,म. -आगरा
4. वासुदेवनन्दन प्रसाद आधुनिक हिन्दी व्याकरण और रचना-पटना: 2000.
5. राजनय: सिद्धांत एवं व्यापार/ Diplomacy: Theory and Practice, Maharshi Dayanand University, – Rohtak, 2004. – P. 224.
6. www.aajtak.in